“TARIXI SHOHRUXIY” ASARINING QO’QON XONLIGI TARIXIDAGI AHAMIYATI

https://doi.org/10.70728/conf.mag.074

Esonov.Z
QDU Tarix kafedrasi katta o’qituvchisi
Aliyeva. S
QDU Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (tarix)
1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Tarixi Shohruxiy” asari hamda asar muallifi, shuningdek asarning Qo’qon xonligining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy tarixidagi ahamiyati va uning tarixchi olimlar tomonidan o’rganilishi haqidagi ma’lumotlar yoritiladi.

Kalit so’zlar: “Tarixi Shohruxiy”, Qo’qon xonligi, davlat amaldorlari, Niyoz Muhammad Xo’qandiy, siyosiy va diniy soha vakillari.

Annotation: This article describes the work "History of Shahrukhi" and the author of the work, as well as the importance of the work in the social, political, and economic history of the Kokhan Khanate and its study by historians.

Key words: “The History of Shahrukh”, Kokhan Khanate, government officials, Niyaz Muhammad Khokandi, representatives of the political and religious sphere.

Аннотация: В данной статье рассказывается о произведении «История Шахрухи» и авторе произведения, а также о значении произведения в социальной, политической и экономической истории Коханского ханства и его изучении историками.

Ключевые слова: «История Шахрухи», Коханское ханство, государственные чиновники, Нияз Мухаммад Хоканди, представители политической и религиозной сферы.

Ma’lumki, Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlar, shu ma'lumotlarda keltirilgan asarlar hamda ularing mualliflari muhim o'rin tutadi. Mustaqillikka qadar xonlik tarixini o'rganishda, asosan, rus sayyohlari va elchilarining asarlariga ko'proq e'tibor berilgan. Natijada mafkura nuqtai nazaridan, tariximiz uchun muhim bo'lgan aksariyat ma'lumotlar kitobxonlar uchun noma'lumligicha qolib ketgan. Xonlik tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan manbalar qadrlidir. Qo'qon xonligi tarixiga oid dastlabki shunday mahalliy manbalardan sirasiga Xoja Muhammad Hakimxon To'ra Ho'qandiy tomonidan yozilgan “Muntaxab at tavorix”, Muhammad Solih Toshkandiy (asl nomi Muhammad Solih domla Rahim

Qoraxoja o'g'li) qalamiga mansub “Tarixi jadidayi Toshkand" (“Toshkentning yangi tarixi”), Is'hoqxon Junaydullo o'g'li Ibratning “Tarixi Farg’ona”, Mulla Olim Maxdum Hojining “Tarixi Turkiston”, Mirzaolim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin ” (“Sultonlar nasabi va xoqonlar tarixi” yoki “Qo'qon xonligi tarixi”) asari hamda Niyoz Muhammad Xo’qandiyning “Tarixi Shohruxiy” asarlarini kiritish mumkin. Ushbu asarlarning barchasi xonlik ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tarixini o’rganishda muhim manbalar bo’lib xizmat qiladi. Chunki, ularning deyarli hammasi o’z davri holatidan kelib chiqqan holda, aniq dalillar asosida yaratilgandir.

Yuqoridagi mahalliy manbalar orasida Qo’qon xonligining iqtisodiy, siyosiy, diniy hayoti haqida muhim ma’lumotlarni o’z ichiga olgan yirik tarixiy asar bu – “Tarixi Shohruxiydir”. Mazkur asar XIX asrda yashab o’tgan farg’onalik tarixchi olim Niyoz Muhammad Xo'qandiy qalamiga mansub. Olim 1803-yilda Qo'qonda shahrida yirik harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Dastlab madrasada ta'lim olib, so’ng Qo’qon xoni Xudoyorxon qo'shinida harbiy kotib ya’ni lashkarnavis bo’lib xizmat qilgan. XIX asrning 60-yillarida o’z lavozimidan iste'foga chiqadi va keyingi faoliyatini ilmiy ish bilan bog’laydi. 1876-yili vafot etgan.

“Tarixi Shohruxiy” asarida Qo‘qon xonligining 1709—1876-yillar davomidagi tarixi to‘g‘risida ma’lumot berilib, unda ushbu xonlik tarkibida bo‘lgan Toshkent, hozirgi Qirg‘iziston, Qozog‘istonning janubiy viloyatlari hududlarining ijtimoiy-siyosiy tarixiga oid muhim ma’lumotlar ham bayon etilgan. Unda Qo‘qon xonligining Buxoro, Sharqiy Turkiston va boshqa mamlakatlar bilan bo‘lgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari haqida ham e’tiborga molik ma’lumotlar keltiriigan. Qozoq olimi T. K. Beysembiyevning yozishicha, “Tarixi Shohruhiy” 1871-1872-(hijriy 1288-yil)-yillarda Xudoyorxonning ko'rsatmasi bilan fors tilida yozilgan[1:10-15]. Ushbu manba birinchi marotaba 1876-yili tarixchilar nazariga tushgan. 1885-yili rus sharqshunosi N. N. Pantusov tomonidan Qozonda chop etilgan. Ayrim qismlari V. V. Bartol'd, I. G. Mallitskiy va V. A. Romodin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Asarda Qo'qon xonlarining ayrim yurishlari, xonlikning Buxoro, Sharqiy Turkiston va boshqa mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqasi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. “Tarixi Shoxruxiy” asari XVIII asr boshlaridan tortib to XIX asrning 70-yillarigacha Qo'qon xonligida bo'lib o’tgan voqealami o'z ichiga olgan[2:6-7].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda Niyoz Muhammad Xoqandiyning “Tarixi Shohruxiy” asari eng muhim yozma manba bo’lib, unda Qo‘qon xonligi siyosiy hayoti, davlat boshqaruvi, ichki va tashqi siyosiy munosabatlar, shuningdek, madaniy-ma’naviy jarayonlar batafsil yoritilgan. Muallif voqealarni guvoh sifatida kuzatib, ularni tarixiy izchillikda bayon etgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. “Tarixi Shohruxiy” nafaqat o‘z davri tarixini, balki o‘sha davrning

ijtimoiy-siyosiy muhitini ham chuqur aks ettiradi. Shu bois bu asar Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda bebaho manba sifatida ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Niyoz Muhammad Xoqandiy. Tarixi Shohruxiy. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1966.
2. Kuzikulov.I Qo’qon xonligi tarixi. Namangan, “Namangan”, 2014
3.
4. Ziyoyev H. Qo‘qon xonligi tarixi va manbalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
5. Shoniyozov K. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Egamberdiyev A. Qo‘qon xonligi: siyosiy va madaniy hayot. – Toshkent: Akademnashr, 2012
7. www.wikipedia.uz